Ular: *ta'limiy maqsad*: o'quvchilarning tasviriy san'at, matematika, adabiyot, ekologiya va "Tasviriy san'at" fani bo'yicha olgan bilimlarini tizimlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash orqali mustahkamlash va boyitib borish; kompozitsiya, shakllarni yaratish, rangshunoslik va amaliy-dekorativ san'at sohalariga oid asosiy bilimlar orqali tanishtirish; ularda obrazli, fazoviy tafakkur xamda eskiz, tasvir, rasm, bo'rtma shakllar yordamida o'z mustaqil fikrini ifodalash malakasini yanada rivojlantirib borish; zarur asbob-uskunalar va qog'oz, loy, tabiiy xomashyolar – urug', barg va boshqa tabiiy mahsulotlar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish.

*Tarbiyaviy maqsad*: O'quvchilarning mehnat va estetik tarbiyasini amalga oshirish; irodasini tog'dek mustahkamlash; ularda atrof-muhitga, vatanga, oilaga, uning tabiati, subyektlariga muhabbatni tarbiyalash; mustaqil ijodiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etishga erishishdir.

*Rivojlantiruvchi maqsad*: O'quvchilarda tasviriy san'at xamda uning tarixi, san'at sohalariga qiziqishni uyg'otish; idrok, topqirlik va san'atshunoslik ijodga barqaror qiziqishni rivojlantirish; ijodiy qobiliyat, ma'naviy-axloqiy madaniyat va voqelikka hissiy munosabatlarni shakllantirish; muammoli vaziyatlarda harakatlanish qobiliyatini, shuningdek, sintez, tahlil,

yechimlarni izlash va yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga ko'nikish va tezkorlikni rivojlantirishdan iboratdir.

Tasviriy san'at to'garak mashg'uloti umumiy o'rta ta'lim maktabida haftasiga ikki marotaba faoliyat olib boriladi. Ya'ni ikki soat, faoliyat davomida o'quvchining ixtiyoriga qarab vaqtni yana uzaytirish imkoniyati ham chegaralanmagan. Bu mashg'ulotlar pastdan yuqori guruhlarga bo'linib o'tkaziladi. Bular kichik, o'rta va katta guruh bo'lib hisoblanadi. Kichik guruh bilan o'tkaziladigan to'garak mashg'ulotlarida rasm chizish bilan birgalikda loy va plastilindan turli xil idishlar, meva va sabzavotlar, qush va hayvonlar, ertak qahramonlari shakli yasaliş jarayoni olib boriladi. O'rta guruh mashg'ulotlari esa narsa buyumlarning o'ziga qarab, rasm chizish va mavzu asosida rasm chizishdan iboratdir. Katta guruh bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarida esa mavzu asosida, bezakli va narsaning o'ziga qarab rasm ishlash mashqlari takrorlanishi asosida o'tkaziladi. Albatta, katta guruh o'quvchilari akvarel, moybo'yoq, tempera va boshqa turli xil bo'yoqlardan foydalaniladi. Chunki, katta guruhlarda kichik guruhga nisbatan bo'yoqlar bilan ishlash tajribasi yuqori bo'ladi. To'garak mashg'ulotida bo'yoqlardan foydalanish bilan bir qatorda o'quvchilar ranglar to'g'risida to'liq ma'lumotlar berib o'tiladi. Bunday ma'lumotlarni mashg'ulot jarayonida etkazishda test, slayd yoki krossvordlardan foydalanilsa, o'quvchilarning xotirasida uzoq mustahkamlanib saqlanadi. Mashg'ulot davomida katta guruhlarda ancha murakkab harakatdagi yoki naturada turgan odam va hayvonlar rasmini chizishni o'rganadilar. O'qituvchi to'garak a'zolari bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlar davomida akvarel bilan ishlash texnikasini o'rgatib boriladi. Akvarel bo'yog'ida bosqichma-bosqich ishlangan ko'rgazmali rasmlarni, yoki rassomlarni ijod jarayonlarining qisqa videoroliklar orqali namoyish etishi kerak. Mashg'ulotlar davomida o'qituvchi natura (qo'yilma) predmetlarining xajmi va rangini tasvirlashda mo'yqalamdan to'g'ri foydalanishi, rasmni rang bilan ishlashdagi birinchi bosqichda predmetning eng katta sirti, uning yorug' joyidan keyingi qismiga rang tobora to'q berib ishlanishi va eng yorug' joy (blik)ga rang berilmay, qog'oz toza qoldirilishini o'rgatib, so'nggi bosqichlarda esa predmetning, yorug' va soyadagi rang nisbatlarini aniqlab, amalda ko'rsatib chizib berib, uni qo'llab borishlariga ko'maklashadi. Bunday ma'lumotlarni o'quvchilarga aniq va tushunarli etkazish o'qituvchining pedagogik qobiliyati va mahorati muhim rol o'ynaydi. Albatta bu dars mashg'ulotlari o'qituvchining imkoniyatidan kelib chiqib, vaqt belgilangan holda amalga oshiriladi. Misol uchun haftada uch yoki undan ham ortiq bo'lishi mumkin. To'garaklarga tasviriy san'at sohasiga qiziqishi bo'lgan, bu borada mukammal darajada bilim va malaka olishni maqsad qilgan o'quvchilar qabul qilinib, ular tarkibi doimiy saqlanib qolishishiga alohida ahamiyat beriladi. Biroq tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida tashkil etilgan guruhlarda o'quvchilar sonini yanada ko'paytirish mashg'ulot rahbarining pedagog mahoratiga bog'liq. Agar mashg'ulotlar interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida o'quvchilarni qiziqtirish usullaridan foydalanib dars o'tilsa, tasviriy san'at to'garak faoliyati yanada takomillashib yuqori natijalarni ko'rsatadi. Bu borada to'garak rahbari faoliyati jarayonida o'quvchilarni tasviriy san'atga qiziqtirish maqsadida bu metod va usullarini bilmog'i juda muhimdir.

To'garakning har bir a'zosi mashg'ulotlarga muntazam ravishda faol qatnashishi, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, har bir ishiga mas'uliyat bilan yondashishi, fanni yaxshi o'zlashtirishi, maktab, jamoat va yoshlar ijtimoiy harakati ishlarida faollik ko'rsatmog'i lozim. Biroq hozirgi tashkil etilgan tasviriy san'at to'garaklari oddiy mashg'ulot tarzda o'tilmoqda. Buning oqibatida qiziquvchilarning tarkibi bir yilga bormay, kun sayin kamayib

borishiga sabab bo'lmoqda. Ba'zi to'garak rahbarlari esa o'zlariga biriktirilgan mashg'ulotlarni ko'r-ko'rona nomiga olib bormoqda. Darslarning sifati talab darajasida emas. Mashg'ulotlarda to'garak a'zolari kamayib ketmoqda, ijodkor, faol, qiziqqan va tashabbuskor o'quvchilar juda kam. To'garak o'qituvchilari mashg'ulotlarni vijdonan yoki sidqi dildan yondashgan holda noan'anaviy usulda interfaol metodlardan foydalanib, qiziqarli tarzga o'tilsa qiziquvchilar soni oshib, ushbu sohaning yanada gullab yashnashiga o'z hissalarini qo'shgan bo'ladilar. O'quvchilar har mashg'ulot oldidan o'qituvchimiz bugun qanday o'yin yoki yangilik o'rganar ekanmiz degan qiziqish bilan darsga tashrif buyurishadilar. Yuqoridagi kamchilikni oldini olish uchun bugungi tezkor zamonda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir.

Tasviriy san'at to'garagining o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, to'garak rahbari o'quvchilar bilan individual ishlashga ko'proq vaqt ajratishi lozim.

O'qituvchi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ishiga alohida jiddiy e'tibor qaratishi, bu tadbirda o'quvchilarni ham faol ishtirok etishlarini ta'minlashi kerak. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilar asosan qalam, qog'oz, akvarel bo'yoqlari bilan ishlaydilar, bunda albatta o'quvchilarning o'quv qurollari bilan to'liq ta'minlanganini rahbar nazoratiga olishi lozim. To'garak mashg'ulotlarini qat'iy tarkibda ishlashini ta'minlash xam ta'lim samaradorligini ta'minlashning muhim shartidir. Shuningdek, to'garak mashg'ulotlari mazmunida bolalarning turli ko'rgazma, festival, tanlov shu jumladan xalqaro tanlov va ko'rgazmalarda qatnashish, ularga maxsus tayyorgarlik ko'rish, bu tadbirlarning mavzu va shartlariga mos asarlar yaratish tajribasini qo'llash yaxshi samara beradi.

To'garak mashg'ulotlari uning qatnashchilarini badiiy amaliy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalariga kirishlari uchun maxsus tayyorlash faoliyati xam qo'llanilishi mumkin. Bu xolda to'garak mashg'ulotlari mazmunida rangtasvir, qalamtasvir, amaliy san'at kompozitsiyalaridan maxsus topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Biroq to'garakning bosh maqsadi, ya'ni o'quvchilarni tasviriy san'atiga jalb etish ta'lim mazmunining asosini tashkil etishi lozim.

Ta'lim texnologiyalari sohasidagi yangidan-yangi izlanishlar bugungi kunda to'xtovsiz yangiliklarga to'la bo'lib rivojlanib kelmoqda. Buning natijasida yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi, ta'lim vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va o'qitish usullarini muttasil yangilab turishi, interfaol metodlardan samarali va ijodiy foydalanishni talab qilinmoqda. Lekin shuni ham aytib o'tish joizki, davrning o'zgarishi, bugungi yoshlarning talabi asosida ta'limning rivojlanishiga qarab yangidan yangi texnologiyalar yaratilib kirib kelinmoqda. Bu yaratilayotgan zamonaviy texnologiyalardan ko'proq foydalanish samarali va yaxshi, biroq eski texnologiyalarni yodda saqlashimiz va kerakli vaziyatlarda qo'llash lozim. Pedagogik faoliyatda har bir o'qituvchi o'z mahoratini oshirish va ustida ishlash maqsadida albatta amaliyotda o'qitish tizimi va usullarining boy xazinasiga to'xtalib o'tadi. Shu sababli albatta buyuk pedagog olimlar tomonidan ishlanib va olib borilgan metodlarni birin-ketin tajriba sifatida foydalanib tajribalarini kengaytiradi. Buning samarasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari yanada ortib, ijodiy faoliyatining oshishiga zamin yaratiladi.

Insonni aqliy rivojlantirish masalasi, kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar hamda faylasuf, tarixchi, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Buning natijalarini, biz Sharq allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy-axloqiy asarlarda guvohi bo'lishimiz mumkin. Qomusiy olimlar: Alisher Navoiy, Kaykovus,

Maxmud Qoshg'ariy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Yusuf xos Hojib, Abdulla Avloniy, Abu Rayxon Beruniy va boshqalarning barkamol insonning aqliy tarbiyasi ilm-fanning o'zni haqidagi qarashlari misollarni ko'rishimiz mumkin.[2.56]

O'.Q.Tolipov, G.S.Sharipova, M.X.Axunova, R.H.Djuraev, I.N.Islomov, F.A.Djumabaeva, Z.M.Tursunova, X.A.To'raqulov, N.Sufixodjaev, N.A.Muslimovlarning tadqiqotlarida o'quvchi va o'quvlarning ijodiy tafakkuri va albatta dizaynerlik, izlanuvchanlik, yaratuvchanlik, ixtirochilik, texnik ijodkorligini rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim maktablari to'garak mashg'ulotlarida turli hil metodlarini foydalanishda tasviriy san'at imkoniyatlari va muammolarini birin-ketin tadqiq etilgan.

**Natijalar.** Izlanishlar natijasida ushbu maqolaning maqsadi tasviriy san'at to'garaklari mashg'ulotida o'qituvchi darsga jiddiy va mas'uliyat bilan yondashishga undashdir. Buning vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1. Tasviriy san'at to'garaklarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlarni takomillashtirishning falsafiy va pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etish;

2. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish;

3. Vitagen texnologiyalar vositasida to'garaklarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish;

4. Kompetensiyaviy va refleksiv yondashuv asosida to'garaklarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlanganlik darajasini tashxislovchi mezonlarni takomillashtirish.

Mashg'ulot jarayonida mazkur vazifalarni ta'lim texnologiyalari negizida qo'llash o'quvchilar natijalarini yuqoriga olib chiqishda yanada samarali sanaladi. Qolaversa, zamonaviy sharoitda tasviriy san'at to'garaklarida o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy faoliyat jarayonini tashkil etib, metodik jihatdan to'g'ri va samarali tashkil etishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham muhim talab qilinadi. Bugungi kunda respublika uzluksiz ta'lim tizimida o'ndan ortiq ta'lim texnologiyalaridan foydalanib kelmoqda. Tasviriy san'at to'garaklarida o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun ta'lim texnologiyalari orasidan individual, muammoli, tabaqalashtirilgan, interfaol, loyiha va innovatsion ta'lim texnologiyalari tanlab olindi.

To'garak faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarning mashg'ulotga va o'qituvchi faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va bu qiziqishni doimiy ravishda oshirib borishga bog'liq. Mashg'ulot a'zosida tasviriy san'atga qiziqishi bo'lmaganlardan yaxshi natija kutib bo'lmaydi. Bunda o'quvchilarda ham ijodiy jarayonga juda ham layoqatsiz va befarq bo'lishadi. O'qituvchining qimmat vaqti va mehnati sarflangani qoladi. Agar mashg'ulotlar o'yinli tarzda interfaol metodlarga tayanib, har mavzuda qiziquvchi a'zo o'ziga kerakli ma'lumotlarini olaversa keyingi mashg'ulotni intiq bo'lib kuta boshlaydi. Qiziqishlar natijasida mustaqil ijodiy yondashishga, yangiliklar yaratishga vaqt ajratadi. Bu albatta o'qituvchiga ijodkorlik samarasi yuqorilashayotganidan darak beradi. To'garak mashg'uloti jarayonida o'quvchi mashg'ulotdan natijani ongli va ruhiy ravishda olgandagina va unga ishonchi hosil bo'lganda to'garakka qiziqishi yanada ortib boradi. O'qituvchining mehnatini ham mas'uliyatni bo'yniga olgan holda his qilib yuzaga chiqaradi.

Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning qiziqishlarini oshirishning bir qator yo'llari mavjuddir bular:



- san'atning mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish;
- mashhur san'at namoyandalarining hayoti va ijodi yuzasidan suhbatlar o'tkazish, filmlar namoyish etish va albomlar tayyorlatish;
- me'yorini olgan holda, o'quvchilarning erishgan yutuqlarini yuzaga chiqarib qayd qilish, rag'batlantirish va ibratli ishlarni to'garakdagi barcha o'quvchilarga namoyish etish;
- mashhur va qiziqarli bo'lgan san'at asarlari, rassomlar haqida suhbat, savol-javob va munozara o'tkazish;
- muvaffaqiyatga erishgan o'quvchilarning ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etish va ularning ishlarini shahar, tuman, viloyat va respublika ko'rgazmalariga tavsiya etish;
- har bir mashg'ulotda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yangi bilim, tushuncha va malakalar berish;
- tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida o'yin, savol-javoblar, musobaqa tarzda tashkil etish(viktorina, krossvord, chaynvord yechish);
- o'quvchilarning tasviriy ijodi uchun ularni ruhiy holati bo'yicha qiziqtirgan mavzularini tavsiya etish;
- mashg'ulot jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib va uni yechish darsini o'tish;
- to'garak ishtirokchilarni yirik muzey va ko'rgazmalarga olib borib, sayohatlarni tashkil etish.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish maqsadida, aniq bir mavzularni tanlashda bir yoqlama qarash yaramaydi. Buning uchun faqat mavzularning va vazifalarning qiziqishlari bo'lishiga emas balkim, bu materialning o'quvchilar idroki, qobiliyatiga, ruhiy holatiga, mahoratiga, tasviriy imkoniyatiga mosligiga e'tibor qaratmoq lozim.

**Muhokama.** Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini olib keladi. Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotida rasm chiziladigan natura, obyekt, mavzuni o'quvchining o'zi idrok etishi, tasavvuri bilan tahlil qilishi, olingan taassurotlar suyangan holda rasm chizishi lozim. Buning uchun rasm chiziladigan narsa va voqea haqida o'qituvchi batafsil ma'lumot berish, rasm chizish yo'llarini ilmiy asosda slayd, rasmlar, videorolik orqali tasavvuriga singdira olish lozim. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi noan'anaviy o'yinlardan foydalansa, mashg'ulotlar yanada qiziqarli va sermazmun tarzda olib boriladi. O'quvchilar rasm chizish ya'ni kompozitsiyani yaratish vaqtida mayda elementlarga diqqat e'tiborini qaratib, kuzatuvchanligini ishga solgan holda ijod qiladilar. O'quvchilarning faol ijod qilishda esa o'qituvchining har bir mavzuga puxta tayyorlagani o'yin va ko'rgazmalari juda yaxshi samarasini ko'rsatadi. O'quvchilarning narsaga qarab rasm chizishda ko'proq ularga kundalik hayotida ko'p to'xtaladigan va tanish bo'lgan narsa — buyumlar ishtirok etadi. Umuman olganda, amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning faolligini oshirishning ko'plab usul va vositalari mavjud bo'lib, bunda albatta, xar bir o'qituvchining izlanuvchanligi va ijodkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ta'kidlash joizki, mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning har bir yutug'i uchun rag'batlantirishi va o'quvchilarning ruhiyatini ko'taruvchi barcha usullardan foydalanishi ham yuqori natijani ko'rsatadi. O'quvchilarda belgilangan yutuqqa erishishda oliy maqsadi, mas'uliyati va hissi rivojlanadi.

Demak, o'qituvchilar to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishida quyidagilarga ham ahamiyat berishi lozim:

1) Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish hamda to'garak mashg'ulotlarini takomillashtirish pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil etish;

2) Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida texnologiya asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish;

3) Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida vitagen texnologiyalar vositasida to'garaklarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish;

4) Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida kompetensiyaviy va reflektiv yondashuv asosida to'garaklarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyati rivojlanganlik darajasini tashxislovchi mezonlarni takomillashtirish.

Ijod jarayonida barcha o'quvchilarning tasviriy san'at nazariy ma'lumotlariga yaxshi ega bo'lishi, ijodiy ishlarni sifatini va samaradorligini oshirib boradi. Xar qanday tasviriy asarni yaratish jarayonida kuzatayotgan tasvirni tuzilishini hisobga olish muhim hisoblanadi, chunki narsalarning tuzilishiga ahamiyat berilmasa ijodiy ish sifatli chiqishi mumkin emas. Predmetlar, qushlar, hayvonlar, odamlar ko'rinishini aks ettirishda shuni bilishimiz lozimki, bu mavjudotlar nafaqat tuzilishga balkim shakliga ham egadir. Rasmda ularning shakl va tuzilishini qonun-qoidalar asosida tasvirlanmasa u xolda ko'rinish o'xshamay qolishi ehtimoli mavjud. Buning natijasida rasm tomoshabinda yetarli taassurot qoldirmaydi. Yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishishning asosiy bo'g'ini o'quvchilarning atrofdagi barcha narsalarga nisbatan qiziqishlarini oshirib, narsa-buyumlar bo'yicha tasavvurlarini rivojlantirish, bunda albatta mashhur rassomlarning ijodi va masterklass roliklari kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimi omili soddadan murakkabga qarab bosqichma-bosqich o'qitish me'yori hisoblanadi. Shu sababli, o'quvchilarning rasm chizishni o'rganishida boshlang'ich tasvirlari xandasiy shakllarni chizishda alohida e'tibor qaratiladi. Buning natijada oddiy tasvirlarni sifatli qilib tasvirlashda ancha engilliklar keltirib chiqaradi. So'ng keyingi murakkab tuzilishdagi tasvirlarni rasmini chizishga bosqichlar asosida o'tiladi. Xohlagan tasvirni chizishda geometrik shakllardan foydalansa, prespektiva hodisalarini to'g'ri tasvirlashga ko'mak beradi. Tasvirlanayotgan har bir mavjudlarning o'z o'lchovi, xajmi va ko'rinishiga egadir. Bularning barchasini inobatga olishimiz kerakki, tasvirni eni, bo'yi, qalinligi, balandligi, bir-biriga nisbatlari, uning katta kichikligini inobatga olib uni nafaqat ko'rib balkim his qilmoq lozim. Har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Yoshlarga ozuqaning samarasini esa o'qituvchining o'quvchilar bilan ijodiy yondashgan holda mashg'ulotlarni interfaol metodlar bilan olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida to'garak mashg'ulotlarida olib borilgan kuzatishlar natijasida, ko'pchilik o'qituvchilar turli xil material va tasvirlash texnikasini qo'llashga e'tibor qaratishmaydi. Mashg'ulotlar juda ham zerikarli va samarasiz olib boriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlari oddiy ya'ni ijodiy yondashilmagan, ba'zi hollarda noan'anaviy texnologiyalardan foydalanilsa o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga yanada tezroq erishadi. To'garak mashg'uloti jarayonlarida

muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rivojlantirib turilishi, o'quv mavzuni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, o'z fikrlarini isbotlab berish qobiliyatini rivojlantirishga undash, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi savol-javoblar va ularga misollar keltirish, o'quvchilarni berilgan amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarishga undash, har xil baholash usullari va ta'lim vositalaridan o'z o'rnida va vaziyatga qarab joyida foydalanish talab etiladi. Texnologik yondashuvning eng avvalo yuzakichilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi samarali yondashuv ekanligini anglagan o'qituvchilar uni o'z faoliyatlariga yondashgan holda tatbiq etishlariga omil bo'la oladi. An'anaviy o'quv jarayonida asosiy omil-pedagog (va uning faoliyati) hisoblansa, pedagogik texnologiyada birinchi o'rinda o'qish jarayonidagi o'quvchilar faoliyati qo'yiladi.

Hozirgi zamon ta'limida bugungi kun yoshlarning talabiga muvofiq o'qituvchi o'z faoliyatida birqator vazifalarni amalga oshirishi lozim. Birinchidan, o'z faoliyatini tahlil qilish, ijodkorlik, izlanish, qiyoslash, yo'l qo'ygan uslubiy kamchiliklarni tanqidiy baholab, ularni bartaraf etishni o'rganish, o'z ish faoliyatini yanada takomillashtirish ustida tinimsiz mehnat qilish, pirovard natijada o'z faoliyatining mukammal, o'ziga xos shakl va uslubini belgilab maqsad qilib olishi kerak. Ikkinchidan, ilg'or, tajribali, yutuq va imkoniyatga ega bo'lgan hamkasblarining ish tajribalarini qunt bilan o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga qo'llay olishi va takomillashtirib borish lozim. Uchinchidan, yuqori natijalarni ko'rsatgan xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy va amaliy o'rganishi lozim. To'rtinchidan, respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda chop etilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yangiliklarni uzluksiz tarzda kuzatib, o'ziga kerak ma'lumotlarni qayd etib borish kerak.

Tasviriy san'at to'garaklarda mashg'ulotlar jarayonida ijodiy yondashilsa o'quvchilarning egallayotgan bilimlari mustahkam bo'lishiga, ularning qo'shimcha adabiyot o'qib, mustaqil izlanishlariga, tasviriy san'at materialni o'zlari qiyosiy tahlil qila olishlari va ular asosida xususiy xulosasini chiqarishga turtki bo'ladi. Shu bois ta'lim metodlariga jiddiy e'tibor berish hozirgi kun muhim talablariga aylanib kelmoqda.

Biz texnologiyalar kundan-kunga rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Rivojlanishlar natijasida o'quvchi yoshlar, o'qituvchilardan yanada kunli va qiziqarli ma'lumotlarni talab etmoqda. Bugungi kunda, darsning ta'limiy maqsadiga bir emas, bir necha metodlardan foydalanish evaziga erishilmoqda. Agar mashg'ulotlar jarayonida samaradorlik darajasi pasaysa yoki o'sish kuzatilmasa, darrov hushyorlik tortib, metodni o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Har bir mashg'ulotlarni turli xil va eng yaxshi saralangan o'qitish metodlarini qo'llagan holda tashkil etilsa, o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini faollashtirishga, o'quvchining nazariy bilimlarni to'liq o'zlashtirishlariga yordam beradi. Buning samarasining natijasida esa o'qituvchining o'z kasbiga qiziqishi ortib borishiga va o'z ustida yanada mehnat qilib yuqori natijalarga erishish istagini olib keladi. Darslarda berilayotgan ilmiy-nazariy bilimlar yordamida o'quvchida mustaqil fikrlay olishiga, dunyoqarashi, tasviriy san'at borasidagi

bilimlarining ortib borishiga sharoit yaratiladi. Aksincha, bir xil metodning qo'llanishi yoki uning noto'g'ri qo'llanilishida esa o'quvchidagi fanga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi, zerikadi va uning aqliy faoliyatini susaytiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'qituvchi har bir mashg'ulotlarga ijodiy yondashgan holda olib borsa, o'z pedagogik faoliyatida faqat yagona bir metodning o'zi bilan chegaralanib qolmay, amaliyotda ularni bir-biriga qiyoslab, darsning ta'limiy maqsadlariga muvofiqligini tanlab dars o'tish imkoniyatlari shakllanadi. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarini o'qitishda ijodiy yondashish tartibini barcha darslar uchun samarali bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan holda olib borayotgan o'qituvchi oqilona, o'rinli foydalanishi natijasida, ta'lim sifatini va samaradorligini oshishiga zamin yaratadi.

### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abdirasilov S. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.; Ilm-Ziyo: 2011. [1.81]
2. Xasanov R. Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar. T.: -2017. [2.56]
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son Farmoni.
4. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. Darslik. T.; Fan: 2004
5. Yakubova N.O. FAN VA JAMIYAT(N2)ISSN 2010-720X.202
6. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir. T.: Bilim, Arnaprint. 2005.
7. Abdirasilov S. Tolipov N. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi Toshkent Aloqachi, 2007.
8. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti 2012.
9. Xasanov R. Maktabda rasviriy san'at o'qitish metodikasi. T.; Fan: 2004.
10. Yusupova Sh. A. PHILOSOPHICAL READINGS E-ISSN:2036-4989 Издатель:Ca Foscari University Department of Philosophy and Cultural Heritage 10.5281/zenodo.5750235
11. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T., "Adabiyot jang'armasi", 2006.
12. Yo'ldoshev O'J. tahriri ostida UMUMIY PEDAGOGIKA o'quv qo'llanma.T:2017.
13. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. Badiiy yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarning o'quvchilar va oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun qo'llanma. T:2008.
14. Yusupova N.Yu., Hamidova M.U, Abidova N.Q, Pardayeva M.Yu. Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodika. Toshkent-2018.
15. Oripov B.N. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. *Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*. 5-nashri "ILM ZIYO" T:2016.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).